


“Mahalla budjeti”



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birlamchi bo‘g‘in sifatida faoliyat yuritishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-209-sonli Farmoni



2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha tuman va shaharlarda “Mahalla budjeti” joriy etildi



Quyidagi tarkibda “Mahalla yettilligi” tashkil etildi:

- mahalla raisi
- hokim yordamchisi
- yoshlar yetakchisi
- ayollar faoli
- profilaktika inspektori
- Ijtimoiy xodim
- soliq inspektori

Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasining* daromadlar manbasi etib quyidagilar belgilandi:



- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizi;
- mahalla idoralari orqali ko‘rsatilgan davlat xizmatlari uchun undirilgan yig‘imning 10 foizi;
- mahalladagi hududi 2 000 kvadrat metrgacha bo‘lgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini hokim yordamchisining onlayn-buyurtmanomasiga asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektron onlayn-auksion savdolari orqali sotishdan tushadigan mablag‘lar, baholash va sotish xarajatlari chegirilgan holda;
- mahallaning mol-mulkini belgilangan tartibda ijaraga berishdan olinadigan mablag‘lar;
- jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari va boshqa mablag‘lar.

* O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-avgustdagi PQ-353-sonli qarori bilan har bir mahallada budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armasi shaklida tashkil etilgan.

Jam'arva mablag'lari mahallalarning quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga yo'naltiriladi:



mahalla hududidagi
ichki yo'llar va
piyodalar yo'laklarini
ta'mirlash



kommunal tizimlarni ta'mirlash
(elektr, gaz, suv)



mahalla hududida sport
va bolalar maydonchasini
qurish va rekonstruksiya qilish



mahalla kutubxonasi
qurilishi



ijtimoiy himoyaga muhtoj
va kam ta'minlangan
oilalar uchun uy-joylarni
ta'mirlash va jihozlash



boshqa
tadbirlar

yoritish tizimini
ta'mirlash



mahalla fuqarolar yig'ini
binosini ta'mirlash yoki
jihozlash



yoshlar markazi
barpo etish



"Yashil maydon" milliy
loyihasi doirasida
obodonlashtirish va
ko'kalamzorlashtirish



ko'p qavatli
uy'larning tomlari va
kirish yo'llarini ta'mirlash



MAHALLA BUDJETI'NI SHAKLLANISHI VA UNDA FOYDALANISH




Fuqarolar
mol-mulk solig'i va yer solig'ini to'laydi.



! Mablag'larni jamlash uchun "Mahalla" uyushmasining tuman (shahar) bo'limlarida budget tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari ko'rinishida g'azna hisobvaraqlari ochildi.



Tuman (shahar) soliq inspeksiyasi



har oy yakuni bo'yicha mahallaga kelib tushgan soliq tushumlari yuzasidan ma'lumotni Mahalla uyushmasi tuman bo'limiga taqdim etadi.



"Mahalla" uyushmasining tuman (shahar) bo'limi



qabul qilingan ro'yxat asosida har bir mahalla bo'yicha ochilgan hisob raqamlarga mablag'larni o'tkazish bo'yicha g'aznachilik bo'limlariga to'lov topshiriqnoma yuboradi.



G'aznachilik bo'linmalari




to'lov topshiriqnomalar asosida tegishli mablag'larni mahallalar hisobraqamlariga o'tkazadi.



Mahalla faollari

mahallaning ehtiyojlaridan kelib chiqib, moliyalashtirish bo'yicha tadbirlar (obyektning ta'mirlash/qurish, tovarlar, xizmatlar sotib olish va h.k.) taklif etadi.



"Mahalla yettiligi"

tegishli tasdiqlovchi hujjatlarni (fuqarolar yig'inlari kengashi qarorlari va boshqa hujjatlar) ilova qilgan holda tadbirlarni moliyalashtirish uchun so'rovnomaga beradi.





“Mahalla” uyushmasining tuman bo‘limi



so‘rovnomaning har bir mahalla smetasiga muvofiqligini, tasdiqlovchi hujjatlarning to‘g‘riligi va to‘liqligini tekshiradi.

davlat xaridlari portalida pudratchilarni tanlash bo‘yicha tanlov e‘lon qiladi.



pudratchilar bilan shartnomalar tuzadi.

shartnoma bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish uchun G‘aznachilikka to‘lov topshiriqnomasini yuboradi.



G‘aznachilik bo‘linmalari

uyushma talabiga binoan tuzilgan shartnoma asosida pudratchilarga to‘lovlarni amalga oshiradi



Pudratchi



ta‘mirlash/qurilish ishlarini olib boradi yoki tovarlar/xizmatlar yetkazib beradi



Mahalla uyushmasi tuman (shahar) bo‘limlari

“Mahalla budjeti” xarajatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni har oy yakunlari bo‘yicha “Ochiq budjet” axborot portalida keyingi oyning 5-sanasi gacha e‘lon qiladi.



Jamg‘armaning joriy yilda foydalanilmagan mablag‘lari Jamg‘arma ixtiyorida qoladi hamda kelgusi yilda foydalaniladi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIIYA
VAZIRLIGI



OpenBudget
O‘zbekiston Respublikasi
Ochiq Budget Portal

